E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O‘ZBEK ZAMONAVIY SHE‘RIYATINING “NAVOIY”SI

Tojiyev Xudoyberdi Ablakim o‘g‘li

“Tashkent Irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute”

Milliy tadqiqot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek zamonaviy she‘riyatining “Navoiy” si deya atalgan Abdulla Oripovning hayot yo‘li, xizmat ko‘rsatga joylari, samarali ijodi hamda mashaqqatli mehnati evaziga erishgan yutuqlari to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, bahor, “Haj daftari”, she‘rlar, she‘riy kitoblar, dostonlar, tarjimalar.

Abdulla Oripov – noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloq Qo‘ng‘irtov etagiga o‘rnashgan bo‘lib, oqar suv taqchil bo‘lsa-da, seryomg‘ir kelgan yillarda ko‘kat-u maysalarga ko‘milib qoladigan kengish joy edi. Bu haqida shoirning o‘zi shunday yozadi:

“Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog‘in ko‘p tushar, Qo‘ng‘irtov etaklari ming xil o‘t-o‘lan, chuchmoma-yu qizg‘aldoqlar bilan, quyonto‘pig‘-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo‘zigullar bilan qoplanar, tevarak-atrof jannatiy bir manzara kasb etardi. Sel suvlari to‘planib qolgan kichik-kichik ko‘ llarni „qoq“ deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqra chuchmomay-u ismaloq, zamburug‘ terib, Qo‘ng‘irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi”.

Olovli she’riyati bilan muxlislarining mehrini qozongan shoir 1976—1982- yillar orasida O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi sifatida adabiyotga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga rahnamolik qildi. 1982—1983- yillarda O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo’limida mas’ul kotib bo’lib faoliyat ko’rsatdi. 1983- yilda shoir o’quvchilarning jurnali “Gulxan”ning 574 bosh muharriri bo’ldi va u yerda 1985-yilgacha, ya’ni O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi lavozimiga o’tguncha ishladi. Uyushmaning kotibi sifatida uch yil ishlagan Abdulla Oripov 1988-yilda O’zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo’mitasi raisi vazifasiga o’tkazildi. 1996-yilning mart oyidan 2009 yilga qadar shoir O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida mehnat qildi.

Abdulla Oripov ijodining hozirgi bosqichi yana ham tuyg‘ularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, «Haj daftari» (1992) turkumiga kirgan she’rlarida endi shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma’lum va mashhurdir. Xususan, «Jannatga yo‘l» dostoni va «Sohibqiron» (1996) she’riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir.

Shoir va jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» singari dastlabki she’rlari talabalik yillarida yozilgan va o‘zbek she’riyatiga yangi, iste’dodli, o‘ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko‘p utmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she’rlar to‘plamining nashr etilishi she’riyat muxlislarida paydo bo‘lgan shu dastlabki tasavvurning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko‘zlarim yo‘lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O‘zbekiston»

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

(1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgan.

Umuman, Oripovning she'r va dostonlarida olg'a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o'z davriga nisbatan (ularning aksari 90-y.larga qadar yozilgan) ilg'orlab ketganini namoyish etdi. Uning ijodida, bir tomondan, G'afur G'ulom lirikasiga xos falsafiylik ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, Hamid Olimjon she'rlariga xos musiqiy ravonlik va badiiy soddalik aks etib turadi. Mazkur 2 manba Oripov she'rlarida o'zaro tutashgan holda orifona she'riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab keladi.

Abdulla Oripov xalqimizni dunyo adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham talay ishlarni amalga oshirgan. U Dantening (rus.)"Ilohiy komediya" asarini, L.Ukrainka, T.Shevchenko, N.Nekrasov, Q.Quliev, R.Hamzatov singari shoirlarning she'rlarini mahorat bilan o'zbekchaga o'girgan. Abdulla Oripov she'rlarida falsafiy teranlik jo'shqin lirizm va insoniy samimiyat bilan uyg'unlashib ketgan. Uning „Bahor", „Birinchi muhabbatim", „Kuz", „Saraton", „O'zbekiston", „Munojotni tinglab", „Otello", „Sarob", „Dengizga", „Malomat toshlari", „Olomonga", „Yuzma-yuz", „Genetika", „Chuvaladi o'ylarim sensiz" va boshqa qator she'rlarida mana shu xususiyat yaqqol seziladi.

O'zbekiston Respublikasining madhiyasi Abdulla Oripov so'zi bilan aytiladi. Abdulla Oripov ijodkorlar orasida birinchi bo'lib, 1998- yilda „O'zbekiston Qahramoni" degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni muallifi ekani bilan ham xotiralarda saqlanib qoladi. U Navro'z va Mustaqillik bayramlarini o'tkazish bo'yicha yozilgan aksariyat ssenariylar muallifidir. Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezlari O'zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko'plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston Xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabr kuni ertalab AQShning Xyuston shahrida 75 yoshida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi", 1999.

2. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat", 2000.

3. S. Mirvaliyev, R. Shokirova. "O'zbek adiblari". – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.

4. Https://tafakkur.net/abdulla-oripov.haqida

5. Https://Mustaqillik.uz

6. Https://Saviya.uz